

TASHQI QULOQDAGI KASALLIKLAR

*Davirova Gulbahor Mamasoliyevna
Xamrayeva Shoira Ergashevna
Muxtorova Nargiza Muxammadiyevna
Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi
Jamoat salomatligi texnikumi*

Anotatsiya: Tashqi, o'rta va ichki davolanadi qulinqing alohida yoki ara-lash jarohatlari uchraydi. Qulinq jarohatlariga akustik, mexanik, termik, fizikaviy va kimyoviy omillar sabab bo'ladi. Barojarohat, vibrojarohat va atmosfera bosimining o'zgarishlari qulinq jaro-hatlari orasida alohida o'rinni egallaydi. Yuzaki jarohatlarga - yumshoq to'qimalarni zararlanishi, chuqur qulinq jarohatlariga - chakka suyagining piramidasini va boshqa qismlarini shikastlanishi yoki sinishi kiradi

Tashqi qulinq jarohatlari. Qulinq suprasining alohida o'zini jarohatlanishi yoki periaurikulyar to'qima, o'rta qulinq va kalla suyagi boshqa qismlarining jarohatlari bilan birga uchrashi mumkin. Tashqi qulinq jarohatlari barcha tashqi qulinq kasallilarining 0,3% ni tashkil qiladi. Sentura va ham-mualliflar (1980) tashqi qulinq jarohatlarining quyidagi tasnifini keltiradi:

1. Lat eyishi va gematoma hosil bo'lishi;
2. Shilinishi;
3. Yirtilishi;
4. Perixondrit va xondoperxondrit;
5. Tashqi eshituv yo'lini torayishi;
6. Kuyishi;
7. Muzlashi;
8. Radiasiyadan zararlanishi;
9. Qulinq gajagini tugunchali xondrodermatiti.
10. Tashqi aerootit.

Jarohatning darajasi klinik belgilar, chakka suyagining rentgenografiyasи va kompyuterli tomo-grafiya tekshiruvlari yordamida aniqlanadi.

Qulinq suprasini jarohati zerb tegishi, tishlash yoki lat eyish natijasida yuzaga kelib, janjal, o'yin yoki sport musobakalari paytida sodir bo'ladi. Bunda tashqi, o'rta va hatto ichki qulinq u yoki bu darajada jarohatlanib, qulinq suprasini qisman yoki butunlay uzilishi kuzatiladi. Qulinq suprasining jarohat maydoniga infeksiya tarqalgan yoki tibbiy yordam o'z vaqtida ko'rsatilmagan hol-larda bemorda qulinq suprasini xondoperixondriti rivojlanadi. Keyinchalik bunday asorat tog'ayni emirilishiga va qulinq suprasini shaklini buzilishiga olib kelishi mumkin.

Quloq suprasining yuzaki jarohatida jarohat maydonining terisiga birlamchi ishlov berib, mahalliy og'riqsizlantirish ostida choklar qo'yiladi. Choklar mumkin qadar erta, dastlabki 2 kun ichida qo'yilishi lozim. Bemor qoqsholga qarshi emlanib, mushak orasiga yoki ichish uchun antibiotiklar buyuriladi. Jarohat maydoniga fizioterapiya muolajalari buyuriladi, boylami har kuni almashtirib turiladi.

Yallig'lanish tarqalmagan hollarda jarohat maydoni bitib, iplar bir haftadan so'ng olinadi.

Jarohat maydoni yiringlaganda qo'yilgan choklar olinib, yiringni chiqarish maqsadida teri qo'shimcha kesilib, rezina chiqargichlar qo'yiladi. Jarohat maydoni yiringli jarrohlik qoidalariga binoan parvarish qilinadi (furasilin, 5-10% dimeksid yoki osh tuzining gipertonik eritmasi bilan ishlov beriladi). Bunday hollarda jarohat maydoni ikkilamchi bitishma hosil kilib bitadi.

Chuqur jarohatlarda, shu jumladan quloq suprasi qisman yoki butunlay uzilganda, mahalliy yoki umumiyligi og'riqsizlantirish ostida jarohat maydoni birlamchi jarrohlik ishlovi yordamida iflos-langan to'qima, yot jismlardan tozalanadi, antibiotiklar qo'shilgan anestetik eritma bilan yuviladi, aseptik boylam qo'yiladi, chetlarini yopishqoq plastir yordamida yaqinlashtiriladi.

Quloq suprasining uzilgan bo'lagi toza polietilen qopchaga solinib, qisqa vaqt ichida o'z o'rni-ga tiqilishi mumkin. O'q-yoy, suqilgan, kesilgan, chopilgan chuqur jarohatlar kalla suyagi va no-g'ora pardaning jarohati bilan birga kechishi mumkin. Shuning uchun rentgenografiya, kompyuter tomografiya tekshiruvlari bilan birga bemorning eshitish qobiliyatini ham tekshiriladi (shivirlab yoki ovozni chiqarib aytilgan so'zlar, kamertonlar yordamida), spontan nistagm va nevrologik belgilar mavjudligi aniqlanadi.

Tashqi eshituv yo'li jarohatlari quloq suprasi jarohati bilan birgalikda yoki yot jismni, quloq kirini chiqarish va quloqni tozalash paytida alohida jarohat sifatida sodir bo'lishi mumkin. Tashqi eshituv yo'li suyak qismining jarohati ko'pincha yonoq va so'rg'ichsimon o'siqlar, chakka -pastki jag' bo'g'imi, nog'ora bo'shlig'i, ba'zan ichki quloq jarohatlari bilan birga uchrashi mumkin. Be-mor pastki jag'i bilan erga yiqilganda yoki zarb iyak sohasiga to'g'ri kelganda tashqi eshituv yo'li suyak qismining pastki-old qismi sinishi mumkin. Bunday hollarda bemorda quloqdan qon oqishi va pastki jag' harakatida quloqni keskin og'rishi, nutqni buzilishi kabi belgilar kuzatiladi.